

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV T'ALIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



H. K. Xamidov
2026 yil

**YURIDIK TEXNIKUMLARNI MUVAFAQIYATLI TAMOMLAGAN
BITIRUVCHILARNI OLIV T'ALIM MUASSASALARIGA O'QISHGA
KIRISH IMTIHONINI O'TKAZISH VA BAHOLASH MEZONI**

DASTURI

60420100-Yurisprudensiya yo'nalishi uchun

Dastur Buxoro davlat universitetining 2026 yil 01.04.2026 yil 11-sori
Kengashida ko'rib chiqilgan va maqullangan.

Tuzuvchilar:

G.A. Yangiyev – "Yurisprudensiya" kafedrasini mudiri
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor.

J.Ch.G'oyibov – "Yurisprudensiya" kafedrasini mudiri
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

M.S.Tog'oyeva – "Yurisprudensiya" kafedrasini o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

Sh.X.Baxonov – I-darajali adliya maslahatchisi, Buxoro
viloyati adliya boshqarmasi boshlig'i birinchi o'rinboshchisi,
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

N.N.Ashurov – Jimoyat ishlari bo'yicha O'lti tumani sudni raisi,
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

ANNOTATSIYA

Yuridik texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim
muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga subbat asosida o'qishga qabul
qilish tartibi tegishli Nizom hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik
hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdaqi PF-
5812-son "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha
chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonining 3-bandiga asosan, 2022/2023-o'quv yili
qabulidan boshlab texnikumlarda o'rta maxsus professional ta'lim dasturlarini
muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarga qo'shimcha ta'lim imkoniyatlari yaratildi.

Mazkur tartibga ko'ra, texnikum bitiruvchilari o'zlari egallagan
mutaxassislikka mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim
muassasalariga kirish imtihonlarisiz, yakka tartibdagi subbat natijalariga asosan
o'qishga qabul qilinishi hamda bakalavriatning ikkinchi bosqichidan ta'limni davom
ettirish huquqiga ega bo'ladi. Ushbu mexanizm professional ta'lim va oliy ta'lim
tizimlari o'rtasida uzviylikni ta'minlash, matakali kadrlar tayyorlash samaradorligini
oshirish, bitiruvchilarning kasbiy salohiyatini yanada rivojlantirish hamda ularning
oliy ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, subbat asosida qabul qilish tartibi bitiruvchilarning nazariy
bilimlari, amaliy ko'nikmalari, kasbiy kompetensiyalari va mutaxassislik bo'yicha
tayyorgarlik darajasini baholashga qaratilgan bo'lib, ta'limning uzluksizligini
ta'minlash hamda mehnat bozori talablariga javob beradigan yuqori malakali
mutaxassislarni tayyorlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Davlat va huquq nazariyasi.

Davlat va huquq nazariyasi yuridik fanlar tizimida fundamental o'rin
egallovchi umumnazariy fan bo'lib, davlat va huquqning vujudga kelishi,
rivojlanishi, amal qilishi hamda jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini

o'rganadi. Mazkur fan davlat-huquqiy hodisalarning umumiy qonuniyatlarini aniqlash, ularning mohiyati va funksiyalarini ilmiy asosda tahlil qilish, shuningdek, huquqni qo'llash amaliyotini nazariy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Fan doirasida, avvalo, davlat va huquq nazariyasining predmeti, metodlari, tizimi, vazifalari hamda uning boshqa ijtimoiy va yuridik fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Davlat va huquq nazariyasi falsafa, siyosatshunoslik, sotsiologiya, iqtisodiyot nazariyasi, tarix, konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi va boshqa huquq sohalari uchun metodologik asoslari. Davlat va huquqning kelib chiqishi, ularning shakllanishiga ta'sir etgan tarixiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy omillari tahlili. Davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi teologik, patriarxal, shartnoma, zo'ravonlik, psixologik, organik, sinfiy va boshqa nazariyalarning mazmun-mohiyati, afzalliklari hamda ilmiy ahamiyati qiyosiy tahlili.

Davlat tushunchasi, uning asosiy belgilari, suverenitet, hudud, aholi va davlat hokimiyati kabi tarkibiy elementlari, shuningdek, davlatning ichki va tashqi funksiyalari, ularni tasniflash mezonlari hamda zamonaviy sharoitdagi rivojlanish tendensiyalari. Davlat boshqaruv shakllari (monarxiya va respublika), davlat tuzilish shakllari (unitar, federativ va konfederativ davlatlar), siyosiy rejimlar, xususan demokratik siyosiy rejimning asosiy xususiyatlari va prinsiplari tahlili. O'zbekiston Respublikasi davlat shaklining konstitutsiyaviy asoslari, demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish tamoyillari, davlat hokimiyatining bo'linishi prinsipi hamda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning huquqiy mexanizmlari.

Fan ijtimoiy normalar tizimi, huquq normalarining tushunchasi, belgilari, tuzilishi va turlari, huquq manbalari, normativ-huquqiy hujjatlar tizimi, huquq ijodkorligi, qonun chiqarish jarayoni bosqichlari hamda normativ-huquqiy hujjatlarining amal qilish doirasi, huquq tizimi va qonunchilik tizimi, huquq institutlari, huquq sohalari hamda ularning o'zaro bog'liqligi. Davlat va huquq nazariyasida huquqiy munosabatlar tushunchasi, ularning subyektlari, obyektlari va mazmuni, yuridik faktlar, huquqiy layoqat va muomala layoqati, huquqni amalga

oshirish shakllari, huquqni qo'llash faoliyati hamda huquq normalarini sharhlashning grammatik, mantiqiy, tizimli, tarixiy va boshqa usullari. Huquqbuzarlik tushunchasi, uning yuridik tarkibi, turlari, huquqiy xulq-atvor, yuridik javobgarlikning asoslari, maqsadlari, prinsiplari va turlari, qonuniylik hamda huquqiy tartibotning mazmuni, huquqiy tartibga solish mexanizmi va uning elementlari. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining mazmuni, ularning o'zaro aloqadorligi, demokratik institutlarning rivojlanishi, jamoatchilik nazorati, qonun ustuvorligi, inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash masalalari zamonaviy yondashuvlari. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish hamda huquqiy tarbiyani takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari. Davlat va huquq nazariyasi zamonaviy globalashuv, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, elektron hukumat, kibernetika, ekologik xavfsizlik, xalqaro integratsiya jarayonlari hamda inson huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq yangi huquqiy munosabatlari tahlili. Fan doirasida davlat va huquq rivojlanishining istiqbollari, milliy qonunchilikni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari, huquqni qo'llash amaliyotini samarali tashkil etish hamda huquqiy islohotlarning nazariy asoslari tahlili. Davlat va huquq nazariyasi yuridik ta'limning nazariy poydevorini tashkil etuvchi, barcha sohaviy yuridik fanlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladigan hamda zamonaviy huquqiy davlat va rivojlangan fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadigan fundamental yuridik fan sifatida eng muhim jihatlari tahlili.

Konstitutsiya va uning nazariy hamda amaliy xususiyatlari

Konstitutsiya tushunchasi, mohiyati va huquqiy tabiati. Konstitutsiyaning funksiyalari va jamiyat hayotidagi o'rni. Konstitutsiyaning yuridik xususiyatlari. Konstitutsiya turlari va ularning tasnifi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tizimi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilish tarixi, zarurati va konstitutsiyaviy islohotlarning bosqichlari. Referendum instituti va Konstitutsiyaning yangi tahririni qabul qilish jarayoni. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Muqaddimasi mazmun-mohiyati. Konstitutsiyaning oliy yuridik

kuchi. Davlat suvereniteti tushunchasi va uning konstitutsiyaviy asoslari. Xalq hokimiyatchiligi prinsipi. Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi prinsipi tahlili. Demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat tamoyillari. Inson qadri, inson huquq va erkinliklarining oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi. Davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi. Davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarning konstitutsiyaviy asoslari. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining konstitutsiyaviy asoslari. Davlat ramzlari va ularning konstitutsiyaviy maqomi. Davlat tili, millatlarga totuvlik va diniy bag'rikenglikning konstitutsiyaviy asoslari. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari tahlili. Fuqarolik tushunchasi va uning konstitutsiyaviy asoslari. Fuqarolikni olish, o'zgartirish va tugatishning huquqiy asoslari. Inson huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlari. Huquq va erkinliklarni cheklashning konstitutsiyaviy asoslari. Miranda qoidasi va uning konstitutsiyaviy normalar asosida tahlili. Aysizlik prezumpsiyasining konstitutsiyaviy normalar asosida tahlili. Shaxsiy huquq va erkinliklar. Siyosiy huquqlar va ularning amalga oshirish mexanizmlari. Iqtisodiy huquqlar. Ijtimoiy huquqlar. Madaniy huquqlar. Ekologik huquqlar. Mehnat qilish huquqi. Dam olish huquqi. Uy-joy huquqi. Sog'liqni saqlashga oid munosabatlarning konstitutsiyaviy normalar asosida tahlili. Ta'lim olish huquqi va ta'limga oid munosabatlarning konstitutsiyaviy asoslari. Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikning konstitutsiyaviy asoslari. Mulik huquqi va mulkiy munosabatlarning konstitutsiyaviy asoslari. Intellektual mulk huquqi. Tadbirkorlik erkinligi va investitsiyalarni himoya qilishning konstitutsiyaviy asoslari. Jamiyatning iqtisodiy negizlari. Bozor iqtisodiyoti prinsiplari. Xususiy mulkning daxlsizligi va barcha mulk shakllarining teng himoya qilinishi. Raqobatni rivojlantirish va monopoliyaga qarshi siyosatning konstitutsiyaviy asoslari. Oila institutining konstitutsiyaviy asoslari. Nikoh va oilani davlat tomonidan himoya qilish. Onalik, otalik va bolalikni muhofaza qilish. Bolalar va yoshlar masalalari. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari va ularning konstitutsiyaviy kafolatlari. Gender tengligi va xotin-qizlarning huquqlarini

ta'minlash. Keksalar huquqlarini himoya qilishning konstitutsiyaviy asoslari. Fuqarolik jamiyati institutlari. Mahalla institutining konstitutsiyaviy maqomi. Nodavlat notijorat tashkilotlari. Siyosiy partiyalar. Kasaba uyushmalari. Jamoat birlashmalari. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlarning konstitutsiyaviy maqomi. Ommaviy axborot vositalari, so'z va axborot erkinligining konstitutsiyaviy asoslari. Axborot olish huquqi. Raqamli huquqlar va axborot xavfsizligi. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi. Davlat hokimiyati organlari tizimi. Oliy Majlisning konstitutsiyaviy maqomi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi vakolatlari. Oliy Majlis Senati vakolatlari. Parlament nazorati. Qonunchilik tashabbusi subyektlari. Qonun qabul qilish jarayoni va bosqichlari. Saylov tizimi prinsiplari. Erkin va adolatli saylovlarning konstitutsiyaviy asoslari. Saylov komissiyalari faoliyati. Referendum instituti. Fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki. Jamoatchilik nazorati va ochiq davlat konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy maqomi. Prezidentning vakolatlari va huquqiy maqomi. Prezident hujjatlarining yuridik kuchi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va uning konstitutsiyaviy maqomi. Vazirlar Mahkamasi vakolatlari. Vazirlik va idoralar tizimi. Mahalliy ijro hokimiyati organlari. Hokimlarning konstitutsiyaviy maqomi. Mahalliy Kengashlarning vakolatlari. Sud hokimiyatining mustaqilligi. Konstitutsiyaviy sud faoliyati. Oliy sudning konstitutsiyaviy maqomi. Iqtisodiy va ma'muriy sudlar faoliyati. Sud orqali himoyalash huquqi. Malakali yuridik yordam olish huquqi. Advokatura faoliyati va uning konstitutsiyaviy asoslari. Notariat instituti. Mediatsiya instituti. Prokuratura organlari faoliyatiga doir konstitutsiyaviy normalar tahlili. Ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya. Davlat xavfsizlik xizmati va adliya organlarining konstitutsiyaviy asoslari. Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi. Konstitutsiyaviy qonunlar. Konstitutsiyaviy nazorat. Konstitutsiyani sharhlash. Konstitutsiyani amalga oshirish mexanizmlari. Konstitutsiyaviy javobgarlik. Demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat hamda birdamlik g'oyalarning mazmun-mohiyati. Inson qadri uchun tamoyil. Yangi O'zbekiston taraqqiyot

strategiyasi va Konstitutsiya. Barqaror rivojlanish maqsadlari hamda ularning konstitutsiyaviy asoslari. Raqamli davlat va elektron hukumat konsepsiyasi. Korruptsiyaga qarshi kurashning konstitutsiyaviy mexanizmlari. Ochiq budjet va fuqarolar ishtiroki. Iqlim o'zgarishi va ekologik xavfsizlikning konstitutsiyaviy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro huquq normalarining o'zaro munosabati. Inson huquqlarini xalqaro himoya qilish mexanizmlari. O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy islohotlarning bugungi holati va istiqbollari.

Huquqiy ko'nikmalar va metodologiya

Yurist kasbining mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. Huquqshunoslik kasbining o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish istiqbollari. Zamonaviy yuristning kasbiy kompetensiyalari. Yurist faoliyatida qonuniylik, adolat, xolislik va professional mas'uliyat tamoyillari. Huquqshunosning kasbiy madaniyati va huquqiy madaniyati. Yurist faoliyatida tashabbuskorlik, kreativlik va masalaga ijodiy yondashuvning ahamiyati. Innovatsion fikrlash va huquqiy muammolarni hal etishda kreativ yondashuv. Tanqidiy, tahliliy va strategik fikrlash ko'nikmalari hamda ularning yurist faoliyatidagi o'rni. Tanqidiy fikrlash ko'nikmasining mazmun-mohiyati va uni rivojlantirish usullari. Mantiqiy fikrlashning omillari, talablari va mezonlari. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodlari. Yurist faoliyatida mantiqiy fikrlashning roli. Fikrni aniq, izchil va mantiqiy ifoda etish usullari va talablari. Analitik va tizimli fikrlashning huquqiy faoliyatdagi ahamiyati. Yuridik faoliyatda deduktiv, induktiv va analogiya bo'yicha xulosa chiqarishning ahamiyati. Muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ularning yechimlarini ishlab chiqish metodlari. Qaror qabul qilish nazariyasi va amaliyoti. To'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish. To'g'ri qaror qabul qilishni shakllantirish metodlari. Tavakkalchilik sharoitida qaror qabul qilishning o'ziga xos jihatlari. Maqsadni to'g'ri shakllantirishning zaruriy talablari. Yurist karerasini rejalashtirishda SMART texnologiyasining qo'llanilishi. Vaqtni samarali boshqarish (Time Management) va yurist faoliyati. Liderlik va boshqaruv ko'nikmalarining yurist faoliyatidagi

ahamiyati. Emotsional intellekt va kasbiy muvaffaqiyat. Stressni boshqarish va kasbiy zo'rqlashlarning oldini olish. Muzokara olib borish san'ati va mediatsiya asoslari. Konfliktologiya va nizolarni muqobil hal etish usullari. Huquqshunos nutqini tayyorlash va uni so'zlashga qo'yiladigan talablar. Yuridik nutq madaniyati. Omma oldidagi nutq va uning ta'sirchanligini ta'minlovchi omillar. Notiqlik san'ati va uning yurist faoliyatidagi ahamiyati. Notiqlik uslublari va yuridik nutq turlari. Prokuror nutqiga qo'yiladigan talablar. Advokat nutqining o'ziga xos xususiyatlari. Sudya nutqining etik va huquqiy talablari. Tergovchi va surishtiruvchi nutqining o'ziga xos jihatlari. Yuridik yozuv madaniyati. Huquqiy hujjatlar tiliga qo'yiladigan talablar. Huquqiy hujjatlarni tayyorlash texnikasi. Yuridik terminologiya va yuridik til madaniyati. Rasmiy uslub va yuridik uslubning o'ziga xos xususiyatlari. Huquqiy mulogot psixologiyasi. Professional kommunikatsiya madaniyati. Tinglash madaniyati va samarali mulogot ko'nikmalari. Ishonirish san'ati va argumentatsiya nazariyasi. Yuridik argumentatsiya. Yuridik asoslashning yurist faoliyatidagi roli. Dalillarni baholash va isbotlash madaniyati. Huquqni izohlash va anglashda konseptual yondashuvlar. Huquq klassifikatsiyasining metodologik ahamiyati. Huquq normalarining metodologik muammolari. Huquqiy tafakkur tushunchasi va uning shakllanish omillari. Huquqiy ongning strukturaviy-funksional tarkiblari. Huquqiy madaniyat va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. Ijtimoiy adolat tushunchasi va uning huquqiy mazmuni. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati. Demokratik qadriyatlar va inson huquqlarining ustuvorligi. Yuridik fan tushunchasi va uning rivojlanish bosqichlari. Yuridik fan obyekti va predmeti. Yuridik fanlar tizimi va ilmlar strukturasini. Fundamental va amaliy yuridik fanlar. Yuridik fan ilmlari shakllari va darajalari. Yuridik fan metodologiyasi. Ilmiy tadqiqot metodlari va yuridik tadqiqot metodologiyasi. Qiyosiy-huquqiy tahlil metodlari. Statistik va sotsiologik metodlarning yuridik tadqiqotlardagi o'rni. Empirik va nazariy tadqiqot usullari. Ilmiy faraz, konsepsiya va nazariyalar. Huquqiy tadqiqotlarda akademik halollik tamoyillari. Ilmiy maqola, tezis, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi va dissertatsiya yozish metodikasi. Huquqshunos faoliyatida axborot

texnologiyalarining roli. Sun'iy intellekt va huquq sohasi. LegalTech texnologiyalari va ularning amaliy ahamiyati. Elektron sudlov va raqamli adliya tizimi. Elektron hukumat va yuridik xizmatlar. Huquqiy axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalaridan foydalanish. Kiberxavfsizlik va shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish. Raqamli dalillar bilan ishlash asoslari. Huquqshunosning jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy mas'uliyati. Huquqiy ko'nikmalarning yurist faoliyatidagi ahamiyati. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish usullari. Yuristning professional imiji va reputatsiyasi. Huquqiy etika tushunchasi. Kasb axloqi tushunchasi. Huquqshunosning kasb axloqi qoidalar. Professional o'dob-axloq me'yori. Manfiatlar to'qnashuvi va yuridik faoliyatda unga yo'l qo'yib bo'lmashligi. Korupsiyaga qarshi kasbiy madaniyat. Xizmat sirini saqlash va maxfiylik prinsipi. Halollik, vijdonlilik va xolislik tamoyillari. Yuridik kasb egalarining professional javobgarligi. Advokatlarning rivoj etadigan axloqiy qoidalar. Tergov va prokuratura organlari xodimlari faoliyatining axloqiy talablari. Sudyalik kasbida xolislik, adolatparvarlik, halollik va mustaqillik prinsiplari. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy etikasi. Notariylikning kasbiy etikasi. Mediatorning kasbiy etikasi. Davlat fuqarolik xizmatlarining o'dob-axloq qoidalar. Xalqaro yuridik etika standartlari. Yurist faoliyatida inson huquqlariga hurmat tamoyili. Kasbiy faoliyatda diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik. Kasbiy nizolarni etik jihatdan hal etish usullari. Yuristning shaxsiy va professional rivojlanish strategiyasi. Zamonaviy yuridik ta'lim va uzluksiz kasbiy rivojlanish. Xalqaro tajriba asosida yurist kasbini takomillashtirish yo'nalishlari.

Jinoyat huquqi.

Jinoyat huquqi tushunchasi, predmeti, usuli va tizimi. Jinoyat huquqining rivojlanish tarixi. O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligining shakllanish bosqichlari. Jinoyat qonunchiligining rivojlanish tendensiyalari. Jinoyat qonunchiligiga oid munosabatlarning konstitutsiyaviy normalar asosida tahlili. Jinoyat huquqining konstitutsiyaviy asoslari. Jinoyat huquqi va boshqa huquq tarmoqlarining o'zaro bog'liqligi. Jinoyat kodeksining vazifalari. Jinoyat

kodeksining tuzilishi va tizimi. Jinoyat kodeksining amal qilish doirasi. Jinoyat qonunining vaqt bo'yicha amal qilishi. Jinoyat qonunining hudud bo'yicha amal qilishi. Jinoyat qonunining shaxslarga nisbatan amal qilishi. Jinoyat qonunini shartlash va qo'llash masalalari. Jinoyat kodeksi prinsiplari. Qonuniylik prinsipi. Fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi tahlili. Adolatlilik prinsipi. Insonparvarlik prinsipi. Ayb uchun javobgarlik prinsipi. Jinoyat tushunchasi va uning belgilari. Jinoyatlarni tasniflash mezonlari. Jinoyatlar ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra tasniflanishi. Jinoyat tarkibi tushunchasi va uning ahamiyati. Jinoyat tarkibi elementlari. Jinoyat obyekti va uning turlari. Jinoyatning obyekti tomoni. Jinoyat subyekti va uning belgilari. Maxsus subyekt tushunchasi. Jinoyatning subyektiv tomoni. Ayb tushunchasi va uning huquqiy ahamiyati. Ayb shakllari. Qasd va uning turlari. Ehtiyotsizlik va uning turlari. Jinoyat motivi va maqsadi. Tugallangan va tugallanmagan jinoyatlar. Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish. Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish. Ixtiyoriy qaytish instituti. Jinoyatda ishtirokchilik tushunchasi va turlari. Jinoyat ishtirokchilarining javobgarligi. Jinoyatga daxldorlik tushunchasi. Jinoyatlar majmui. Jinoyatlar retsidenti. Takroran jinoyat sodir etish. Qilinishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar tahlili. Zaruriy mudofaa. Oxirgi zarurat. Ijtimoiy xavfli qilinishni sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish. Buyruq yoki boshqa farmoyishni bajarish. Kasb yoki xo'jalik faoliyati bilan bog'liq asosi tavakkalchilik. Jismoniy yoki ruhiy majburlash. Jinoyat uchun javobgarlik tushunchasi va asoslari. Jinoyat uchun javobgarlik yoshi. Javobgarlikdan ozod qilish asoslari. Javobgarlikdan ozod qilish turlari. Jinoiy jazo tushunchasi va maqsadi. Jazo tizimi. Asosiy va qo'shimcha jazolar. Jarima jazosi. Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi. Majburiy jamoat ishlari. Axloq tuzatish ishlari. Ozodlikni cheklash. Intizomiy qisimga jo'natish. Ozodlikdan mahrum qilish jazosi. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi. Jazoni tayinlashning umumiy asoslari. Jazoni individuallashtirish prinsipi. Jazoni yengillashtiruvchi holatlar tahlili. Jazoni og'irlashtiruvchi holatlar tahlili. Shartli hukm qilish instituti. Jazoni o'tashdan mudдатidan ilgari shartli ozod qilish. Jazoni yengilgog'i bilan almashtirish.

Amniyati va afv institutlari. Sudlanganlik tushunchasi. Shaxsning sudlanganlik holatining umumiy xususiyatlari. Sudlanganlikning tugallanishi va olib tashlanishi. Tibbiy yo'sindagi majburiy choralarining tushunchasi va turlari. Voyaga yetmaganlar javobgarligining o'ziga xos xususiyatlari. O'n sakkiz yoshga to'lmisdan jinoyat sodir etgan shaxslarga qo'llaniladigan jazolar. Voyaga yetmaganlarga nisbatan majburiy choralarini qo'llash. Shaxsga qarshi jinoyatlar tushunchasi va tizimi. Hayotga qarshi jinoyatlar turlari. Qasddan odam o'ldirish jinoyatining tarkibi. Ehtiyotsizlik orqasida odam o'limiga sabab bo'lish. O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish. Sog'liqqa qarshi jinoyatlar turlari. Qasddan badanga og'ir, o'rta og'ir va yengil shikast yetkazish jinoyatlari. Qiyinash jinoyati. Odam savdosi jinoyati. Sha'n va qadr-qimmatga qarshi jinoyatlar. Jinsiy erkinlik va daxlsizlikka qarshi jinoyatlar. Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar. Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarga qarshi jinoyatlar. Tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar tizimi. Terrorizm jinoyati tarkibi. Ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlar. Garovga olish jinoyati. Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar. Bezorilik jinoyati tarkibi. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlar. Quro'l va o'q-dorilar bilan bog'liq jinoyatlar. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar. Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar. Kiberjinoyatlar tushunchasi va turlari. Kompyuter axborotidan qonunga xilof foydalanish bilan bog'liq jinoyatlar. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar tizimi. O'g'rilik jinoyatining tarkibi. Talonchilik jinoyati tarkibi. Bosqinchilik jinoyati tarkibi. Fribgarlik jinoyatining tarkibi. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish jinoyati. Tovlamachilik jinoyati. Mulkm qasddan nobud qilish yoki unga shikast yetkazish. Soliq va bojxona sohasidagi jinoyatlar. Soxta tadbirkorlik va noqonuniy tadbirkorlik bilan bog'liq jinoyatlar. Korruptsiya bilan bog'liq jinoyatlar tushunchasi va tizimi. Pora olish jinoyati. Pora berish jinoyati. Pora olish-berishda vositachilik qilish. Mansab soxtakorligi. Mansab vakolatini suiste'mol qilish. Hokimiyat yoki mansab vakolatini chetga chiqish. Odil sudlovga qarshi jinoyatlar. Davlat boshqaruvi tartibiga qarshi jinoyatlar. Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi

jinoyatlar. Xalqaro jinoyatlar tushunchasi va ularning huquqiy tavsifi. Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning huquqiy asoslari. Jinoyatlarning oldini olishning huquqiy mexanizmlari. Vikimologiya va jinoyatchilik profilaktikasi. Kriminologiyaning jinoyat huquqi bilan o'zaro bog'liqligi. Jinoyat huquqida rag'amlashtirish va sun'iy intellektning o'rni. Sud amaliyotida jinoyat qonunlarini qo'llashning dolzarb masalalari. Jinoyat qonunchiligini liberalashtirish va insonparvarlashtirish yo'nalishlari. Jinoyat qonunchiligi yuzasidan amalga oshirilgan ishlohotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasida jinoyat huquqini takomillashtirishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari.

Fuqarolik huquqi

Fuqarolik huquqi tushunchasi, predmeti, usuli va tizimi. Fuqarolik huquqining tamoyillari. Fuqarolik huquqining manbalari. Fuqarolik qonunchiligining rivojlanish tarixi. Fuqarolik qonunchiligiga oid munosabatlarning konstitutsiyaviy asoslari. Fuqarolik huquqining boshqa huquq tarmoqlari bilan o'zaro bog'liqligi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar tushunchasi, elementlari va turlari. Fuqarolik huquqlari va burchlarining kelib chiqish asoslari. Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish usullari. Fuqarolik huquqining subyektlari. Jismoniy shaxs tushunchasi va huquqiy maqomi. Huquq layoqati va muomala layoqati. Muomala layoqatining turlari va cheklanishi. Emanzipatsiya instituti. Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish tartibi. Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish tartibi. Fuqarolik holati dalolatnomalari va ularning huquqiy ahamiyati. Vasiylik va homiylik. Vasiy va homiyning huquq hamda majburiyatlari. Yuridik shaxs tushunchasi, belgilari va turlari. Yuridik shaxslarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi. Tijorat va notijorat yuridik shaxslarining huquqiy maqomi. Davlat yuridik shaxslari va xususiy yuridik shaxslar faoliyatining huquqiy asoslari. Vakillik tushunchasi va turlari. Vakolat tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari. Ishonchnoma tushunchasi. Ishonchnoma turlari va muddatlari. Ishonchnoma va uning shakliga qo'yilgan talablar. Ishonchnomani bekor qilish va uning amal qilishini tugatish asoslari. Bitim tushunchasi va turlari. Bitimlarning shakllari. Bitimlarning

haqiqiy shartlari. Haqiqiy bo'lmagan bitimlar va ularning turlari. Bitimlarning huquqiy oqibatlari. Da'vo muddati tushunchasi va ahamiyati. Da'vo muddatlarining turlari. Da'vo muddatlarini hisoblash tartibi. Da'vo muddatining to'xtatilishi, uzilishi va tiklanishi. Ashyoviy huquqlar tushunchasi va turlari. Mulik huquqi tushunchasi va shakllari. Xususiy, davlat va boshqa mulik shakllari. Mulik huquqining subyektlari va obyektlari. Mulik huquqining mazmuni. Mulik huquqining vujudga kelishi va bekor bo'lish asoslari. Umumiy mulik huquqi va uning turlari. Xususiy mulikning dastizligi. Mulik huquqini himoya qilish usullari. Ashyoviy-huquqiy da'volar. Egallash huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar. Majburiyat huquqi tushunchasi va tizimi. Majburiyat tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari. Majburiyatlarning subyektlari va obyektlari. Majburiyatlarni bajarish prinsiplari. Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullari. Neustoyka tushunchasi va shakllari. Garov tushunchasi va shakllari. Zakalat instituti. Kafilik va kafolat. Mol-mulkni ushlab qolish huquqi. Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik. Zararni qoplash tushunchasi va asoslari. Ma'naviy zararni qoplash. Shartnoma tushunchasi va uning namunaviy shartlari. Shartnoma erkinligi prinsipi. Shartnoma tuzish, o'zgartirish va bekor qilish tartibi. Fuqarolik-huquqiy shartnomalarning turlari. Oldi-soldi shartnomasi. Ayriboshlash-shartnomasi. Hadya shartnomasi. Ijara shartnomasi. Lizing shartnomasi. Pudrat shartnomasi. Xizmat ko'rsatish shartnomasi. Tashish shartnomasi. Saqlash shartnomasi. Sug'urta shartnomasi. Kredit va qarz shartnomalari. Bank omonati va bank hisobvarag'i shartnomalari. Topshiriq, komissiya va agentlik shartnomalari. Franchayzing shartnomasi. Elektron shartnomalar va raqamli bitimlar. Iste'molchilar huquqlarini fuqarolik-huquqiy himoya qilish. Intellektual mulik huquqi tushunchasi va tizimi. Intellektual mulik obyektlari. Mualliflik huquqi va uning obyektlari. Turdosh huquqlar. Patent huquqi. Ixtirolar, foydali modelar va sanoat namunalari. Tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va geografik ko'rsatkichlar. Firma nomi va tijorat siri. Seleksiya yutuqlari va integral mikrosexemalar topologiyasiga bo'lgan huquqlar. Intellektual mulik huquqlarini himoya qilish usullari. Lisenziya shartnomalari. Mualliflik huquqini

buzganlik uchun javobgarlik. Meros huquqi tushunchasi va tamoyillari. Vorislik huquqi. Vasiyatnoma bo'yicha vorislik. Qonun bo'yicha vorislik. Merosni ochish va qabul qilish tartibi. Majburiy ulush huquqi. Merosni rasmiylashtirish tartibi. Merosdan voz kechish va merosni taqsimlash. Xalqaro xususiy huquqning fuqarolik huquqidagi o'rni. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning fuqarolik-huquqi maqomi. Xalqaro fuqarolik-huquqiy shartnomalar. Raqamli iqtisodiyot va fuqarolik huquqi. Elektron tijoratning fuqarolik-huquqiy asoslari. Sun'iy intellekt va fuqarolik huquqining dolzarb masalalari. Korporativ huquq asoslari. Tadbirkorlik faoliyatining fuqarolik-huquqiy asoslari. Korporativ nizolarni hal etish. Fuqarolik qonunchiligini takomillashtirishning zamonaviy yo'nalishlari va amalga oshirilayotgan islohotlar.

Mehnat huquqi

Mehnat huquqi tushunchasi, predmeti, usuli va tizimi. Mehnat huquqining tamoyillari. Mehnat huquqining manbalari. O'zbekiston Respublikasida mehnat qonunchiligining rivojlanish tarixi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mehnat huquqiga oid normalar tahlili. Mehnat kodeksining vazifalari va asosiy prinsiplari. Mehnat huquqining xalqaro-huquqiy asoslari. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) konvensiyalarining mehnat huquqidagi o'rni. Mehnat huquqining boshqa huquq tarmoqlari bilan o'zaro bog'liqligi. Mehnatga oid huquqiy munosabatlar tushunchasi va turlari. Yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarning subyektlari. Mehnat huquqining subyektlari va ularning huquqiy maqomi. Xodim va ish beruvchining asosiy huquq hamda majburiyatlari. Ijtimoiy sheriklik tushunchasi va prinsiplari. Jamoa shartnomasining tushunchasi, mazmuni va shakli. Jamoa kelishuvi va uning huquqiy ahamiyati. Kasaba uyushmalari va ularning mehnat munosabatlardagi o'rni. Ish beruvchilar birlashmalari va ularning vakolatlari. Mehnat shartnomasining tushunchasi, mazmuni va tatarfari. Mehnat shartnomasining turlari. Muddatli va nomuddatli mehnat shartnomalari. Mehnat shartnomasini tuzish tartibi. Xodimni ishga qabul qilishda qo'yiladigan talablar. Ishga qabul qilishda taqdim etiladigan hujjatlar. Sinov muddati va uni qo'llash tartibi. Ishga qabul qilishni

rad etishning huquqiy asoslari. Mehnat shartnomasini o'zgartirish asoslari va tartibi. Boshqa ishga o'tkazish tushunchasi va turlari. Mehnat shartnomasini bekor qilish tushunchasi va asoslari. Mehnat shartnomasini xodim tashabbusi bilan bekor qilish. Mehnat shartnomasini ish beruvchi tashabbusi bilan bekor qilish. Tomonlarning kelishuvi asosida mehnat shartnomasini bekor qilish. Mehnat shartnomasini bekor qilishning huquqiy kafolatlari. Ishdan bo'shatishda xodimning huquqlarini himoya qilish. Ish vaqti tushunchasi va turlari. Normal, qisqartirilgan va to'liqsiz ish vaqti. Moslashuvchan ish vaqti rejimi. Smenali ish vaqti. Masofaviy mehnat va uning huquqiy asoslari. Ish vaqtidan tashqari ishlash tartibi. Tungi vaqtda ishlashning huquqiy tartibi. Dam olish vaqti tushunchasi va turlari. Tanaffuslar va dam olish kunlari. Ishlamaydigan bayram kunlari. Har yilgi mehnat ta'tili tushunchasi va turlari. Asosiy va qo'shimcha mehnat ta'tillari. Ta'til berish tartibi. Ta'tilni ko'chirish va uzaytirish asoslari. Ta'til uchun kompensatsiya to'lash tartibi. Mehnatga haq to'lash tushunchasi va prinsiplari. Mehnatga haq to'lash tizimi va uni belgilash tartibi. Tarif tizimi va tarif stavkalari. Ish haqi shakllari va tizimlari. Eng kam ish haqi va uning huquqiy ahamiyati. Rag'batlantirish va mukofotlash tizimi. Ish haqidam ushlab qolish asoslari va tartibi. Mehnat intizomi tushunchasi va uni ta'minlash usullari. Ichki mehnat tartibi qoidalari. Mehnat intizomini rag'batlantirish choralari. Intizomiy jazo choralari va ularni qo'llash tartibi. Intizomiy javobgarlikning huquqiy asoslari. Moddiy javobgarlik tushunchasi va turlari. Xodimning moddiy javobgarligi. Ish beruvchining moddiy javobgarligi. Mehnatni muhofaza qilish tushunchasi va prinsiplari. Xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlarini ta'minlash. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish tartibi. Kasb kasalliklari va ularning huquqiy oqibatlari. Ayollar mehnatini huquqiy muhofaza qilish. Homilador ayollar va bolali ayollar mehnatining huquqiy kafolatlari. O'n sakkiz yoshga bo'lgan shaxslarning mehnatini qo'llash taqiqlanadigan ishlar ro'yxati. Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat huquqlari va kafolatlari. Pensionerlar va keksalar mehnatini huquqiy tartibga solish. Chet el fuqarolari va fuqaroligi

bo'lmagan shaxslarning mehnat huquqiy maqomi. Davlat fuqarolik xizmatchilarining mehnat munosabatlari. Mehnat nizolari tushunchasi va turlari. Yakka tartibdagi mehnat nizolarini ko'rib chiquvchi organlar. Mehnat nizolarini sudda ko'rib chiqish tartibi. Jamoaviy mehnat nizolari tushunchasi va ularni hal etish usullari. Mediasiya va mehnat nizolarini muqobil hal etish usullari. Ish tashlash huquqi va uni amalga oshirish tartibi. Davlat mehnat inspeksiyasining vakolatlari. Mehnat qonunchiligiga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va jamoatchilik nazorati. Mehnat qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik. Mehnat huquqlarini sud orqali himoya qilish. Mehnat huquqlarining xalqaro himoyasi. Raqamli mehnat munosabatlari va elektron mehnat shartnomalari. Platforma mehnati va uning huquqiy tartibga solinishi. Sun'iy intellekt va mehnat huquqining dolzarb masalalari. Zamonaviy bandlik shakllari va ularning huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasida mehnat qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning istiqbollari.

Ma'muriy huquq

Ma'muriy huquq tushunchasi, predmeti, usuli va tizimi. Ma'muriy huquqning davlat boshqaruvidagi o'rni va ahamiyati. Ma'muriy huquqning vujudga kelishi va rivojlanish tarixi. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy huquq fanining rivojlanish bosqichlari. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning tushunchasi, belgilari va turlari. Ma'muriy-huquqiy normalar tushunchasi va umumiy xususiyatlari tahlili. Ma'muriy-huquqiy normalarning tuzilishi, turlari va amal qilish doirasi. Ma'muriy-huquqiy normalarning boshqa huquq normalaridan farqli jihatlari. Ma'muriy huquq manbalari va ularning tizimi. Konstitutsiya va qonunlarning ma'muriy-huquqiy munosabatlardagi o'rni. Qonunosti hujjatlarining ma'muriy huquqdagi ahamiyati. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning subyektlari. Jismoniy va yuridik shaxslarning ma'muriy-huquqiy maqomi. Davlat organlari ma'muriy huquq subyekti sifatida. Ma'muriy organlar tushunchasi, turlari va vakolatlari. Markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarining huquqiy maqomi. Davlat boshqaruvi tushunchasi va uning asosiy prinsiplari. Davlat boshqaruvining ma'muriy-huquq shakllari va ularning o'zaro bog'liqligi. Davlat boshqaruvi usullari va ularning tasnifi. Huquqiy va

tashkiliy boshqaruv shakllari. Ma'muriy hujjatlar tushunchasi va ularning turlari. Ma'muriy hujjatlarni qabul qilish, o'zgaritish va bekor qilish tartibi. Ma'muriy proseduralar tushunchasi va ularning huquqiy ahamiyati. Ma'muriy ish yuritish asoslari. Davlat xizmatlari tushunchasi va ularning huquqiy tartibga solinishi. Elektron davlat xizmatlari va raqamli boshqaruv tizimi. Davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflik prinsiplari. Davlat xizmati tushunchasi va uning konstitutsiaviy-huquqiy asoslari. Davlat xizmatining turlari. Davlat fuqarolik xizmati tushunchasi va tamoyillari. Davlat xizmatchisi maqomi. Davlat xizmatchilarining huquq va majburiyatlari. Davlat xizmatchilariga qo'yiladigan malaka va axloqiy talablar. Davlat xizmatiga kirish, o'tash va tugatish tartibi. Davlat xizmatchilarining intizomiy javobgarligi. Davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlari. Manfaatlarni to'qnashuvining oldini olishning ma'muriy-huquqiy asoslari. Ma'muriy nazorat va tekshiruv faoliyatining huquqiy asoslari. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ma'muriy faoliyati. Ichki ishlar organlarining ma'muriy-huquqiy faoliyati. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ma'muriy vakolatlari. Hokimliklarning davlat boshqaruvidagi o'rni. Jamoatchilik boshqaruvi va fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtiroki. Davlat boshqaruvida qonuniylik tushunchasi va uni ta'minlash mexanizmlari. Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashda jamoatchilik nazoratining o'rni. Jamoatchilik nazorati shakllari va usullari. Prokuror nazorati va ma'muriy qonuniylikni ta'minlash. Sud shakllari va ma'muriy-huquqiy himoya vositalari. Ma'muriy adliya tushunchasi va nazorati va ma'muriy-huquqiy himoya vositalari. Ma'muriy adliya tushunchasi va rivojlanishi. Ma'muriy sudlarning vakolatlari. Ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasi va uning belgilari. Ma'muriy huquqbuzarlik tarkibi. Ma'muriy huquqbuzarlik obyekti, obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv tomoni. Ma'muriy javobgarlik tushunchasi va asoslari. Ma'muriy javobgarlikka tortilish yoshi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikning vazifalari. Ma'muriy javobgarlik prinsiplari. Ma'muriy jazolar tushunchasi va tizimi. Ma'muriy jazoning maqsadi va turlari. Jarima jazosi va uni qo'llash tartibi. Maxsus huquqdan mahrum qilish jazosi. Ma'muriy qamoqqa olish jazosining qo'llanilishi tartibi. Ma'muriy huquqbuzarlik

qurilini yoki bevosita obyektini musodara qilish. Ma'muriy jazolarni tayinlashning umumiy qoidalari. Ma'muriy javobgarlikni yengillashiruvchi va og'irlashiruvchi holatlar. Voyaga yetmaganlarning ma'muriy javobgarligi. Mansabdor shaxslarning ma'muriy javobgarligi. Yuridik shaxslarning ma'muriy javobgarligi masalalari. Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish tartibi. Ma'muriy ish yuritishda dalillar va ularni baholash. Ma'muriy ishlarni ko'rib chiquvchi organlar va mansabdor shaxslar vakolatlari. Ma'muriy ish yuritish bosqichlari. Ma'muriy bayonoma tuzish tartibi. Ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha qarorlarni ijro etish tartibi. Ma'muriy javobgarlik sohasida inson huquqlari kafolatlari. Transport, ekologiya, tadbirkorlik, sanitariya va boshqa-sohalardagi ma'muriy huquqbuzarliklar tizimi. Jamoat tartibi va xavfsizligiga qarshi ma'muriy huquqbuzarliklar. Axborot texnologiyalari sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar. Raqamli davlat boshqaruvi va ma'muriy huquqning zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari. Elektron ma'muriy jarayonlar va elektron hujjat aylanishi. Davlat boshqaruvida sun'iy intellektidan foydalanishning huquqiy masalalari. Ma'muriy-huquqiy islohotlar va davlat boshqaruvinii takomillashtirish yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy huquq tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari.

Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar

Sud tizimi. Sudning asosiy vazifalari tahlili. Sudyalarning mustaqilligini ta'minlash masalasi tahlili. Sudyaning vakolat muddati va uni hisoblash tartibi. Sud ishlari yuritiladigan til. Aysizlik prezumpsiyasi. Sudyalik lavozimiga nomzodga qo'yiladigan talablar. O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashining tarkibi va uni shakllantirish tartibi. O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi faoliyatining asosiy prinsiplari. Konstitutsiaviy sud sudyasining vakolatlari. Jismoniy va yuridik shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiaviy sudiga murojaat qilish tartibi. Harbiy sudlar sudloviga taalluqli ishlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari. Prokuratura organlarining tizimi. Ichki ishlar organlari tizimi va asosiy vazifalari. Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatining asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi

huquqiy maqomi va asosiy vazifalari. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimi va asosiy vazifalari. Bojxona organlari tizimi va asosiy vazifalari. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari. Sudlar, prokuratura organlari, ichki ishlar organlari, davlat xavfsizlik xizmati va sudyalari oliy kengashi to'g'risidagi qonunlarning asosiy jihatlari tahlili.

ESLATMA: Sud-huquq sohasida amalda oshirilgan so'ngi islohotlar, qabul qilingan qonunlar, Prezident Farmonlari mazmun-mohiyati va qonunchilikdagi o'zgarishlar imtihon savollarini tuzishda e'tiborga olinadi. Shuningdek, abituriyentlarning mantiqiy fikrlashi, sud-huquq sohasidagi islohotlarning mazmun-mohiyatini tushunishi va hayotiy misollar yordamida tahlil etishi ijobiy baholanadi.

Tavsiya etiladigan ayrim adabiyotlar

1. Sh.A.Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – T.: TDYU, 2018. – 220 bet.
2. X.T.Odiltorayev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – T.: Adolat, 2018. – 528 bet.
3. Mualliflar jamoasi. Huquqiy ko'nikmalar va metodologiya. Darslik. – T.: TDYU, 2018.
4. I.B.Zokirov. Fug'arolik huquqi. Darslik. 1-qism – T.: TDYU, 2009. – 611 bet.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi: <https://lex.uz/mact/-111453>
6. M.Usmonaliyev, P.Bakunov. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2010. – 662 b.
7. M.X.Rustambayev. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga shartlar. Umumiy qism. – Toshkent: "Adolat", 2016. – 608 b.
8. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi: <https://lex.uz/docs/-104720>

9. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi: <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>

Normativ huquqiy hujjatlar.

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi "Jamiyada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4149765>
3. O'zbekiston Respublikasining Sudlar to'g'risidagi qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y., 03/21/703/0723-son
4. O'zbekiston Respublikasining Prokuratura to'g'risidagi qonuni, 29.07.2001-y., Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.
5. O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar to'g'risidagi qonuni, 2016 yil 16 sentyabr. O'RQ-407-son. Toshkent. <https://lex.uz/acts/-3027843>
6. O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar to'g'risidagi qonuni, 2018 yil 5 aprel. O'RQ-471-son. Toshkent. <https://lex.uz/acts/-3610935>

YURIDIK TEXNIKUMLARNI MUVAFFAQIYATLI TAMOMLAGAN BITIRUVCHILARNI OLIV T'ALIM MUASSASALARIGA O'QISHGA KIRISH SINOVLARI BAHOLASH MEZONLARI

Yuridik texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish sinovlari subbat shaklida o'tkaziladi va har bir variantda 4 tadan savol bo'ladi. Har bir savolning javobi eng ko'pi bilan 25 ballga baholanadi, jami 100 ball.

Abituriyentning subbatdagi javobiga qo'yiladigan talablar	Baholash ballari
a) berilgan savolni to'liq bilsa, uning mohiyatini tushunsa, u bo'yicha ijodiy fikrlay olsa, tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yuritib olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, xulosa va qaror qaror qabul qilsa, o'z fikrini to'liq, ravon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, mustaqil fikr asosida xulosalar chiqara olsa.	22-25
b) berilgan savolni yetarli darajada bilsa, uning mohiyatini	19-21

tushunsa, savol yuzasidan tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yuritib olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, savolning nazariy va amaliy jihatlarni yetarlicha ochib bera olsa, o'z fikrini to'liq, ravon bayon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, xulosalar chiqara olsa.	
d) berilgan savolni qisman bilsa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol bo'yicha o'z fikrini bayon qila olsa, grammatik xatolarga yo'l qo'ysa, qisman xulosalar chiqarsa.	14-18
e) berilgan savolni yaxshi bilmasa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lmasa, o'z fikrini to'liq bayon qila olmasa va umuman javob bermasa.	0-13

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan mutaxassislik fani imtihon natijalari bo'yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida abituriyent faqatgina o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.